

NAVOYI VILOYATI G`OZG`ON SHAHARIDA TASHABBUSLI  
ISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI <sup>1</sup>

*Quvonchbek Avazov, Arslon Artikov, Ravshan Alimxodjayev*

*TDIU MMT-81k guruhi talabalari*

*Annotatsiya: Maqolada mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini shakllantirish, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari samaradorligini ta'minlashning ilmiy-amaliy jihatlari yoritilgan. Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish, shuningdek, mahalliy budjet xarajatlaridan oqilona va samarali foydalanish hisobiga mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqotlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

*Kalit so'zlar: mahalliy byudjet; mahalliy byudjet daromadlari; mahalliy byudjet xarajatlari; mahalliy hokimiyat organlari; mahalliy soliqlar va yig'imlar; hududlar; mintaqaviy iqtisodiyot.*

**Kirish**

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va liberallashtirish, samarali soliq-byudjet siyosatidan foydalangan holda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat boshqaruvini markazsizlashtirish jarayonini davom ettirish joylarda davlat siyosatini amalga oshirishda mahalliy va

---

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

hududiy hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshirishga, respublika davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga bosqichma-bosqich o'tkazishga, shuningdek, hududiy davlat hokimiyati organlarining tuman, shahar hokimiyati organlariga vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Moliya sohasida soha va hududlarni mutanosib rivojlantirish hisobidan mahalliy byudjetning daromad bazasini kengaytirish zarur. Eng muhimi, tuman va shaharlarda mahalliy byudjetlarning kengaytirilishi aholining turmush darajasi va turmush sharoitini, umuman, barqarorlik va osoyishtalikni yuksaltirishga xizmat qilishi kerak".

Navoiy viloyati G'ozg'on shahrida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan tadbisli budjetlashtirish haqida ma'lumot beradi. Hujjatda G'ozg'on shahrida tadbisli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori, moliyalashtirilgan tadbirlar, ularning qiymati va amalga oshirilgan yillarga ko'ra tahlil keltirilgan.

Tadbirlar tarkibida maktablarni ta'mirlash va jihozlash, ichimlik suv ta'minotini yaxshilash, mahalla ichi yo'llariga asfalt qoplamasi yotqizish kabi dolzarb yo'nalishlar ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, sport va boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash hamda obodonlashtirish ishlari ham amalga oshirilgan.

Shuningdek, hujjatda tadbisli budjetlashtirish jarayonida aholi tomonidan onlayn, oflayn va SMS orqali berilgan ovozlar hamda eng ko'p ovoz to'plagan loyihalar haqida ma'lumot berilgan. Umuman olganda, ushbu hujjatda G'ozg'on shahrida tadbisli budjetlashtirish jarayoni va uning natijalari to'liq yoritib berilgan.

**Navoiy viloyati G'ozg'on shaharni tashabbusli budjetlashtirish uchun  
yo'naltirilgan mablag'lar miqdori**

(million so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021- yil	2022- yil	2023- yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	254,6	261,9
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	1 055	1 844,5	6 545,4
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	800	2 099,1	7 100,0
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'	184,6	1 268,6	4 895,9
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	615,08	568,6	2 093,5
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	255	261,9	83,9

Navoiy viloyati G'ozg'on shaharni tashabbusli budjetlashtirish uchun 2021-2023 yillarda tashabbusli byudjet uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki 2021-yilda Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 1055 mln so'mni tashkil etgan. Shundan 800 mln so'mni "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan

tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘ esa 255 mln so‘mni tashkil qilgan.

2022-yilgi ma‘lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak Yil boshiga qoldiq mablag‘ 254,6 mln so‘mni tashkil etgan.

Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar 1844,5 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan 2099,1 mln so‘m mablag‘ni tashkil qilgan.

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘ 261,9 mln so‘m bo‘lgan.

Oxirgi 2023-yilgi ma‘lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak. Yil boshiga qoldiq mablag‘ 261,9 mln so‘mni tashkil etgan.

Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar 6545,4mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan 7100,0mln so‘m mablag‘ni tashkil qilgan.

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘ 83,9mln so‘m bo‘lgan. 3-yillik tashabbusli byudjetlashtirishni tahlil qiladigan bo‘lsak 2021-yildagi byudjetlashtirish uchun ajratilgan mablag‘lar 2022-yilda qisman ortganini ko‘rishimiz mumkin, 2023-yilda esa avvalgi 2 yilga nisbatan sezilarli miqdorda mablag‘ ajratilgan.

Buning sabablaridan biri sifatida Tashabbusli byudjetlashtirish uchun har bir shahar yoki viloyatning umumiy byudjetidan 5% miqdorida mablag‘ ajratilishidir.

**2-jadval**

**Navoiy viloyati G‘ozg‘on shaharni tashabbusli budjetlashtirish  
natijasida amalga oshirilgan tadbirlar**

## *Modern education and development*

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag' (mln. so'mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>		<b>3</b>	<b>6</b>	<b>13</b>	<b>184,92</b>	<b>1268,7</b>	<b>7 100 ,0</b>
1.	Hududiy ichki yo'llar			2			1 400,0
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	1	4	4	150	1 204,5	2 500,0
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		1			13,2	
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash						
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash			1			550,0
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		1			51,0	
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari			1			200,0

8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)			3			950,0
9.	Boshqa tadbirlar	2		2	34,92		1 500,0

Navoiy viloyati G'ozg'on shaharni tashabbusli budjetlashtirish natijasida 2021- yilda amalga oshirilgan tadbirlar mazkur yilda Gozg'on shahrida umumiy 3 ta loyiha amalga oshirilgan va ulardan biri Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash loyihasi hisoblanadi. Yuqoridagi loyihalar uchun 2021-yilda umumiy **184,92 mln<sup>2</sup>so'm sarflangan.**

**Keyingi 2022-yil uchun byudjetlashtirishga e'tibor qaratadigan bo'lsak umumiy 6 ta loyiha amalga oshirilgan va yana** Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash uchun 4ta Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun esa 1ta loyiha amalga oshirilgan. Shuningdek ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash uchun 1ta loyiha amalga oshirilgan bu loyihalar uchun umumiy 1268,7 mln so'm sarflangan. 2023-yilgi loyihalar soni esa 13 tani tashkil etgan va bu yerda ham loyihalarning ko'p qismini maktablarni ta'mirlashga qaratilgan shuningdek hududlarni obodonlashtirish uchun ham 3ta loyihaga mablag' ajratilganva umumiy loyihalar uchun 2023-yilda 7100,0 mln so'm sarflangan. Bu mablag' oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada ya'ni 2022-yilga nisbatan deyarli 7 barobar oshgan.

**3-jadval**

**Navoiy viloyati G'ozg'on shaharda Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari**

---

<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

## *Modern education and development*

<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari</b>		<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>	<b>2023- yil</b>
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar		0	851	6000
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		252	323,7	545,4
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	7	178,2	250,8
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	55	145,5	294,6
	Iqtisod qilingan mablag'lar	0	0	0
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlar	PQ-5250ga asosan	803	0	0
		0	0	0
		0	0	0
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>1 055</b>	<b>147,7</b>	<b>7 090,9</b>

Navoiy viloyati G'ozg'on shaharda Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 2021-yil kesimida mablag' ajratilmaganini ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda choraklarda bir xil **851** mln.so'm mablag' ajratilgan ekan. 2023-yilda esa choraklarda **6000** mln.so'mdan mablag' ajratilgan. Shu jumladan Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2021-yilda choraklarda umumiy **1 055** mln so'mni tashkil etgan bo'lsa 2022-yilning ushbu choraklarida **1 147,7** mln so'mni tashkil etgan. 2023-yilning ushbu choraklarida **7 090,9** mln so'mni tashkil qilib oldingi yillarga nisbatan deyarli barobar oshgan.Mazkur ma'lumotlarni tahlil qilib nega uchun ajratilgan mablag'lar yo'q deydigan bo'lsak mazkur chorakdagi mablag'lar keyingi yil erkin qoldiq mablag' sifatida o'tgan.

**4-jadval**

**Navoiy viloyati G'ozg'on shaharni tashabbusli budjetlashtirish  
natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi**

/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori( ming.so'mda)
<b>2021-yilda</b>			
	Ministadion qurish	385	150 000
	G'ozg'on XTB ta'saruffidagi 1,2 va 3 maktablarda ko'mirxona qurish	276	150 000



## *Modern education and development*

	G'ozg'on shahrida zamonaviy kutubxona qurish	2	500 000
	<b>JAMI</b>	663	800 000
<b>2022-yilda</b>			
	3-maktab kutubxonasiga stelaj va moddiy texnik bazasini mustahkamlash	951	400 000
	G'ozg'on shahar 1- maktab yuqori sinf o'quvchilari uchun 200 komplekt parta olish	618	300 000
	G'ozg'on shahar 1- maktab atrofini o'rash	541	550 000
	G'ozg'on shahar 2- maktabga tik quduq qazish va suv inshooti barpo qilish	522	90 000
	G'ozg'on shahardagi 4 ta maktabgacha ta'lim muassasalariga kuz qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish uchun ko'mirxona qurish	474	400 000
	Tumar MFY atrofini ko'kalamzorlashtirish uchun tik quduq qazish	270	150 000
	<b>JAMI</b>	3376	1 890 000
<b>2023-yilda</b>			
	Yashil makon hududini sim to'siqli panjara bilan o'rash	1515	300 000

## *Modern education and development*

	2 - sonli maktabni moddiy texnik bazasini mustahkamlash	1100	700 000
	1 maktab filiali hududida mini stadion qurish	1089	600 000
	2-maktabga 20 ta zamonaviy elektron doska xarid qilish	1011	550 000
	Jinoyatchilikni va huquq buzarlilikni oldini olish maqsadida ko'chalarni kameralashtirib, markaziy video kuzatuv tizimini joriy etish	977	500 000
	1 - sonli maktabni moddiy texnik bazasini mustahkamlash	960	650 000
	G'azg'on shahar Tumar MFY hududida zamonaviy usti yopiq yechinish xonasi, dush, zamon talabiga mos keladigan o'lchamli mini stadion qurish	866	1 000 000
	Sport maktabining moddiy texnika bazasini mustahkamlash	489	550 000
	G'azg'on shahri kirish joyida 3ta ot ramzi va atrofni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	428	500 000
	G'azg'on shahar Mahalla va nuroniylarni qollab quvatlash bo'limiga	427	150 000

## *Modern education and development*

	tegishli “Yashil makon” hududidagi daraxtlarni sug’orish uchun tik quduq qazish		
	Tumar MFY hududida A.Temur xiyobon va A.Navoiy ko’chalarini 2km asfalt qilish	425	900 000
	Marmarabod MFY osiyo guzarida 1km yo’lga asfalt yotqizish	423	500 000
	Tumar MFY dagi ichki ko’chalarda quyosh paneli tungi yoritqichlar o’rnatish	419	200 000
	<b>JAMI</b>	10 129	7 100 000

Navoiy viloyati G’ozg’on shaharni tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalarning umumiy soni 3 tani tashkil etgan va loyihalar uyilda chun 800 mln so’m mablag’ ajratilgan umumiy ovozlar soni esa 663 tani tashkil etgan. 2022-yilda umumiy 6ta loyiha g’olib deb topilgan va ushbu loyihalar uchun umumiy 3376 ta ovoz berilgan. Ushbu ovozlardan 7 tasi onlayn ovozlar qolgan 3369tasi sms ovozlarni tashkil etgan.

Offlayn ovozlar esa mazkur yildan bekor qilingan. 2023 -yilda 13 ta loyiha g’olib deb e’lon qilingan umumiy 10129 ta ovoz yig’ilgan va bu ovozlarning hammasi sms orqali to’plangan.

Ushbu yilda mazkur loyihalar orasida eng ko’p ovoz Yashil makon hududini sim to’siqli panjara bilan o’rash loyihasi to’plagan va bu ovozlar soni 1515 tani tashkil qilgan.

Eng kam ovoz esa Tumar MFY dagi ichki ko’chalarda quyosh paneli tungi yoritqichlar o’rnatish loyihasi 419 ta ovoz bilan g’olib deb topilgan.

## **Xulosa**

Navoiy viloyati G'ozg'on shaharni 2021-2023-yillardagi tashabbusli byudjet loyihalarini ko'rib chiqish jarayonida jamoamiz bilan shunga amin shunga amin bo'ldikki G'ozg'on shahrida byudjetlashtirish jarayonida 2021-yilda kam loyihalar kam sonli ovozlar bilan ham g'olib deb topilgan bo'lsa keyingi yillarda aholining Tashabbusli byudjetlashtirishga bo'lgan qiziqishi va ishonchi evaziga loyihalar va ovozlar soni ham oshib borgani guvohi bo'lamiz. Mazkur loyihalar ichida maktablarni ta'mirlash, ichimlik suvini yaxshilash va mahalla ichki yo'llariga asfalt yotqizish kabi loyihalarni ko'proq uchratishimiz mumkin.

## **FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo 'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017

10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.

21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022. <sup>3</sup>
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. IB Masharipov. Relevance of civil society in the modern world, attitude and solutions. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. 2023

---

<sup>3</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>